

TARIX FANINI O'QITISHDA TARIXIY YODGORLIKLAR BILAN TANISHTIRISH METODINING DOLZARBLIGI

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani MMTBga qarashli 41-umumiy

O'rta ta'lim maktabining tarix fani o'qtuvchisi

Davletova Ibodat Tilovberdievna

Annotatsiya: *Maqolada tarix darslarida o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy materiallar, xususan, me'moriy obidalar, yodgorliklar bilan tanishtirish metodining ahamiyati ochib berilgan. Globallashuv jarayonida vatanparvarlik tarbiyasini olib borish pedagogik muammo sifatida qaralib, uning asosiy echimi yoshlarni yurtimizdagi muqaddas maskanlar, tarixiy obidalar bilan yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy shakl va vositalar asosida o'rganishning metodlari tahlil qilingan. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda respublikamizda keyingi yillarda qabul qilingan ma'naviy-ma'rifiy, maktab ta'limiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar dasturilamal bo'la olishi qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'quvchi-yoshlar, tarbiya, vatanparvarlik, metod, tarixiy obidalar, ichki turizm.*

Аннотация: *В статье раскрывается значение метода ознакомления учащихся с историческими материалами, в частности памятниками архитектуры, в воспитании их в духе патриотизма на уроках истории. В условиях глобализации патриотическое воспитание рассматривается как педагогическая проблема, основным решением которой является анализ методов обучения молодежи в нашей стране на основе сакральных мест, исторических памятников, новаторских подходов, инновационных технологий, современных форм и инструменты. Отмечено, что в организации образовательного процесса нормативно-правовые документы по духовно-просветительскому, школьному образованию, принятые в последние годы в стране, могут носить программный характер.*

Ключевые слова: студенты, воспитание, патриотизм, метод, исторические памятники, внутренний туризм.

Annotation: The article reveals the significance of the method of familiarizing students with historical materials, in particular architectural monuments, in educating them in the spirit of patriotism in history lessons. In the context of globalization, patriotic education is seen as a pedagogical problem, the main solution of which is to analyze the methods of teaching young people in our country based on sacred places, historical monuments, innovative approaches, innovative technologies, modern forms and tools. It is noted that in the organization of the educational process, legal documents on spiritual and educational, school education, adopted in recent years in the country, can be of a program nature.

Key words: students, education, patriotism, method, historical monuments, domestic tourism.

Bugungi globallashuv jarayoni kuchaygan bir davrda millat ruhini, milliy ma'naviy boylikni asrab qolish muammoga aylandi. Mazkur muammoga echim topish uchun o'quvchi-yoshlar o'rtasida o'tkaziladigan ma'rifiy ishlar samaradorligi - o'qituvchilarning o'z ishlariga nisbatan fidoyiligiga, ta'lim-tarbiyada turli metodlarni o'z vaqtida qo'llay olishlariga bog'liqdir. Ushbu tarbiyaviy ishni olib borishda maktab o'quv dasturidagi tarix fanining o'rni bo'lak, deb o'ylayman, bejiz faylasuf Avreliy Avgustin: "Biror xalqni uyg'otmoqchi bo'lsangiz, unga tarixini o'rgating" deya, qayd etmagan. Haqiqatan, tarix darslari o'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda noyob imkoniyatga ega. Vatanparvarlik ta'limining asosiy omillaridan biri ham, aslida, tarixni o'rganishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni³² bo'yicha qabul qilingan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 73 -maqsadida: "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish", 77-maqsadda - "O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish"

vazifasi qo'yilgan. Bu-bejiz emas! Hatto O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 apreldagi "Prezident ta'lim muassasasalari Agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-sonli Farmonida mazkur ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlar bilan birgalikda O'zbekiston tarixi fanini ham chuqurlashtirilgan holda o'tilishi alohida belgilandi. Shuningdek, mazkur Farmonning 3-bandi 6-xatboshisida: "Ta'lim va tarbiya jarayonlariga vatanparvarlik ruhi, milliy g'urur va iftixor, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat, O'zbekiston tarixi, ilmiy-ijodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosga hurmat, o'zlikni anglash, mehnatsevarlik va mas'uliyatlilik, qat'iyat va shijoatlilik g'oyalari singdirilishiga alohida e'tibor qaratish" qayd etib o'tilgan. 2021-2022 o'quv yilida mamlakatimizdagi mayjud 10 130 ta umumta'lim maktablarida 6 246 491 nafar o'quvchi tahsil olishgan³⁴, bu esa O'zbekiston aholisining 18 foizini tashkil etadi, ya'ni qariyb har 5 nafar fuqaromizdan bir nafari har kuni maktabga boradi. Shuning uchun ham maktabdagi asosiy masalalardan biri haqida buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir", degan so'zlari yana o 'ta dolzarb bo'lib turibdi. Nega o'ta dolzarb so'ziga urg'u beryapman? Vaziyatga xolis nazar solaylik. Hozirgi o'quvchining ma'naviy-psixologik qiyofasi qanday? U haqiqatan o'qish uchun maktabga boryaptimi? Bugungi maktab o'quvchilari bilan tizimli ish olib borish uchun ularning psixologik holatiga baho berishimiz kerak. Albatta, butun respublika bo'yicha bir xil baho berib bo'lmaydi, ammo ommaviy axborot vositalari, chet el tadqiqotchilarining fikricha har 15 yilda yangi avlod vakillari paydo bo'lmoqda. Ya'ni, keyingi asrda paydo bo'lgan 6 ta avlod bo'yicha puxta tadqiqotlar qilingan. Bular: "Ovozsiz avlod" (1925-1945), "Bolajon avlod" (1945-1964), "X" avlod (1964-1979) , "Y" avlod (1980-1995), "Z" avlod (1996-2010) va hozirgi kun avlodi - "Alfa" avlod. Tadqiqotchilarning fikricha, hozir maktablarimizda "Alfa" avlod vakillari ta'lim-tarbiya olishmoqda. Bu avlodning o'ziga xosligi shundaki, ular texnika, kompyuter davrida voyaga etmoqda. Bu avlodni ertak aytib, pand-nasihat bilan yoki shapaloq bilan tarbiyalay olmaysiz, bu avlod virtual olamda tarbiyalanyapti. Pandemiya tufayli maktablarda masofaviy ta'limni yo'lga qo'yilishi ham bu avlodni rag'batlantirdi. Ma'lumotlarga ko'ra "...2019 yilda O'zbekiston

Respublikasida 22,5 mln. nafar internetdan foydalanuvchilar ro'yxatga olingan, uyali aloqa mijozlari soni esa 22,8 mln., 4-avlod mobil aloqa egalari 16 million nafar. Internetdan foydalanuvchilarning 60 foizi esa 25 yoshgacha bo'lgan yoshlar! O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, 60 foiz yoshlar axborotni internetdan oladi, 62 foiz yigit-qiz global tarmoqdan mustaqil, ota-onalar nazoratisiz foydalanishadi. 80 foiz yoshlar ijtimoiy tarmoq va messenjerlarga a'zo, O'zbekistonda "Facebook"dan foydalanuvchilar soni 69 foizga etgan, 30 foiz yoshlar internetda kuniga 15 daqiqadan 1 soatgacha o'tirsa, 36 foizi 1-3 soat, 12 foizi 3 soatdan ko'proq vaqt sarflaydi³⁶ Shu o'rinda Prezidentimizning yana bir mashhur gaplarini qayd etmoqchiman: "Hozir bolalarni maktab emas, telefon tarbiyalayapti" Xuddi shuning kabi farzandlarimiz qo'lga kompyuter, telefon, planshet kabi qimmatbaho jihozlarni olib berishdan avval, ulardan foydalanish madaniyatini o'rgatishimiz lozim bo'ladi. Ilgari ota-onalarimiz "yomon bolalarga qo'shilmagin" deb nasihat qilar edi. Ammo, bugun biz farzandlarimizga "yomon bola"ni yana qimmat baholarga o'zimiz olib berayapmiz. Demak, muammolar ko'p va yana ko'paymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5640-sonli qarorida shunday so'zlar yozilgan: "... ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida etarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan". Nima qilmoq kerak? Bu birdaniga hal bo'ladigan jarayon emas, yangi muammolarni esa eskicha yo'l bilan hal qilib bo'lmaydi... Yangi-yangi yo'nalishlar, noan'anaviy usullarni tadbiq qilish juda dolzarb masala bo'lib turibdi. Hozirgi o'quvchi-yoshlarni quruq gaplar bilan hayron qoldirib bo'lmaydi, yuqorida aytganimdek, internet "ohangrabosi" barchani o'z domiga tortib, kecha-kunduz 24 soat mobaynida turli usul va uslublar bilan ularning ongiga ta'sir ko'rsatmoqda. Yuqoridagi tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, mazkur pedagogik muammo davlat siyosati darajasida bo'lib, uning asosiy echimi - o'quvchi-yoshlarni

vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, va vatanparvarlik ruhidajarbiyaning eng samarali metodi: yoshlarni yurtimizdagi muqaddas maskanlar, tarixiy obidalar bilan yangicha yondashuv, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy shakl, metod va vositalarni asosida tanishtirish asosida ularda o'z ajdodlariga hurmat, o'zligini anglash, nasl-nasabini bilish, o'ziga nisbatan ishonch, milliy g'urur, tug'ilib o'sgan joyiga hurmat, vataniga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Buyuk bobomiz Amir Temurning quyidagi so'zlari bor: "Qudratimizga shubha qilsangiz, biz qurgan imoratlarga boqing!" Haqiqatan shunday! Bugungi maktab o'quvchisi bundan o'n yil yoki besh yil oldingi o'quvchi emas. Uning ongida yangi narsa singdirish uchun, avvalo, uni hayratlantira olishimiz zarur. O'zbekistonimizda nafaqat o'quvchi-yoshlarni, balki katta avlod, boshqa millat va din vakillarini ham hayratlantira oladigan noyob tarixiy materiallar mavjud, bu - tarixiy obidalarimiz, muqaddas qadamjolarimiz, asori-atiqalar saqlanayotgan muzeylarimiz!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022 yil 14 apreldagi "Prezident ta'lim muassasasalari Agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-sonli Farmoni ("Xalq so'zi" gazetasi. 2022-yil 16-aprel №79 (8141)).

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5640-sonli qarori ("Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2021-yil 27-mart № 62 (318)-son.)

4. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. - Toshkent, "Sano-standart", 2017. 79-bet.

5. Hakim Sattoriy. "Ma'rifat-imtiyoz emas, fidoyilikni talab qiladi" "Ma'rifat" gazetasi. 2021-yil 26-aprel. № 17 (9342).